



“XVIII ASR O‘ZBEK YOZMA ADABIYOTI VA XALQ OG‘ZAKI IJODI ASARLARI ORASIDAGI UYG‘UNLIK HAMDA O‘ZIGA XOSLIK”.

Matmusayeva Yulduzxon Mirzaliyevna

Guliston davlat universiteti, 70230104-Adabiyotshunoslik

(o‘zbek adabiyoti) yo‘nalishi 2-kurs magistranti. Elektron manzil: matmusayevayulduz896@gmail.com

Tel:+998945851209

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15230646>

ARTICLE INFO

Received: 31th March 2025

Accepted: 10th April 2025

Published: 16 th April 2025

KEYWORDS

doston, folklor, timsol, syujet, majoz, ertak, tarbiya, og‘zaki ijod, epos, rivoyat, badiiy adabiyot, obrazli fikrlash, afsona.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o‘zbek yozma adabiyoti, uning xalq og‘zaki ijodi asarlari bilan o‘zaro munosabati, uyg‘un va farqli jihatlarini ochib berish, o‘zbek xalq ertaklarining yozma adabiyotdagi Muhammadniyoz Nishotiyning “Husn va Dil” dostoni bilan o‘xshash tomonlari tahlil qilingan. Shuningdek, folklor janrlarining bola tarbiyasidagi ahamiyati haqida so‘z yuritildi. Maqolaning dolzarbligi, doston kompozitsion qurilishi boshqa dostonlarda uchramaydigan o‘ziga xos farqli jihatlarini yoritib berishdir.

O‘zbek xalqining og‘zaki va yozma epik ijodi ko‘p asrlik boy tarixga egadir. Bu tarix ibtidoiy jamiyat odamlarining tabiat stixiyalari bilan bo‘lgan to‘qnashuvlari natijasida vujudga kelgan miflar, sehri-fantastik ertaklar, tarixiy rivoyat va xronikalar, qahramonlik va hayratomuz romantik eposlar, xalq kitoblarigacha bo‘lgan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. O‘zbek xalqining ana shunday qadimiy, boy og‘zaki va yozma epik merosi XVIII-XIX asrlarda ham mavjud edi. Bu asrlarda “Go‘ro‘g‘li” siklidagi va boshqa o‘nlab jangnomalar, tarixiy mazmundagi romantik hamda qahramonlik dostonlari, “Tohir va Zuhra”, “Oshiq G‘arib va Shohsanam”, “Sayyod va Hamro”, “Asli va karam”, “Sanobar”, “Yusufbek va Ahmadbek”, “Alibek bilan Bolibek”, “Xurshid va Malikai Dilorom” kabi dostonlar, ularning folklor va xalq kitobi variantlari tarqaldi.¹

Folklor – og‘zaki ijod. Og‘zakilik – xalq ijodining yashash va yaratilish tarzi. Chunki u hali yozuv kashf qilinmagan uzoq o‘tmishdagi ajdodlarimiz turish– turmushining, dunyoqarashi va e‘tiqodining, kurashlardagi zafari va mag‘lubiyatlarining ifodachisi sifatida yuzaga kelgan. Folklor og‘izdan-og‘izga o‘tib yashasa, badiiy adabiyot yozuv vositasida yashaydi. Folklor asari og‘zaki aytiladi (ertak, maqol, topishmoq, rivoyat, afsona, latifa, naql va boshqalar), ijro etiladi (doston, og‘zaki drama, lof, askiya va boshqalar), kuylanadi (qo‘shiq). Badiiy adabiyot esa faqat o‘qiladi, ijrosiga xos xususiyatlar esa folklordan ijodiy o‘zlashtirilgan. Og‘zakilik folklorning o‘zgarish shakli bo‘lib, o‘z navbatida, xotirada saqlamoqni, yodlab eslamog‘ni taqozo etadi. Buning uchun esa, kuchli hofiza zaruriyatga aylanadi. O‘zbek baxshi va shoirlari orasida qirqdan ziyod an‘anaviy dostonlarni, tag‘in qanchadan – qancha termalarni bilgan, kuylagan, yana o‘zi to‘qiganlarning borligi shu an‘anaviy ehtiyojning hosilasidir.²

¹ O‘zbek adabiyoti tarixi. XVII-XIX(I yarmi) asrlar. R. Orzibekov. Toshkent-2006. 13-bet.

² Xalq og‘zaki ijodi fanidan ma‘ruzalar matni. Samarqand-2015. 10-11 betlar.

XVIII asr o'zbek adabiyoti boshqa davr va asrlardagi o'zbek adabiyotiga nisbatan ancha chala o'rganilgan. V. Abdullayevning shu asrdagi adabiy hayot bo'yicha ko'rsatgan sa'y-harakatlari tufayli Nishotiy, Ravnaq, Mavlono Kiromiy, Roqim, Yahyo, Umar Boqiy, Nurmuhammad Andalib, Muhammad Tohir Xorazmiy kabi shoir va adiblarning nomlari, ular haqidagi ba'zi ilmiy ishlar paydo bo'ldi.³

Yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining uyg'unligi. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot o'zaro aloqada bo'ladi. Chunki yozma adabiyotning ma'lum qismi xalq og'zaki ijodi asosida vujudga keladi. Har ikkala holatda ham millatning orzu-intilishi, xalq turmushi, inson qalbidagi his-tuyg'ulari, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, xalqning har qanday adolatsizlikka qarshi nafrati yuksakligi, yakunda barchasi yaxshilik bilan tugashi kuzatiladi. Nishotiy, Ravnaq, Mavlono Kiromiy, Roqim, Yahyo, Umar Boqiy, Nurmuhammad Andalib, Muhammad Tohir Xorazmiy kabi shoir va adiblar ham o'z asarlarida xalq og'zaki ijodida bo'lgani kabi timsollardan, maqol va iboralardan keng foydalanganlar.

Yozma adabiyot va xalq og'zaki ijodining o'ziga xosligi. Xalq og'zaki ijodi namunalari qachon va kim tomonidan yaratilgani ma'lum emas. Bunday asarlarning qachon yaratilgani haqida aniq ma'lumot berish qiyin. Chunki xalq og'zaki ijodi og'zaki tarzda avloddan avlodga o'tib kelgan. Yozma adabiyotda esa muallif va asarning qachon yozilgani haqida ma'lumotlar keltiriladi. Xalq og'zaki ijodida asarlar barmoq vaznida yaratilsa, yozma adabiyotda aruz vaznidagi foydalaniladi. Xalq og'zaki ijodi omma, ya'ni xalq tomonidan yaratilsa, yozma adabiyot bir kishiga tegishli bo'ladi. Xalq og'zaki ijodiga oid asarlarning tili sodda, turli badiiy unsurlardan holi bo'ladi. Yozma adabiyotda esa asarlar muallif tomonidan qayta ishlov berilib, adabiyashtiriladi.

Yozma va og'zaki ijod bir-birini to'ldirgan va adabiyotning rivojida muhim o'rin tutgan. Bunda so'z asosiy qurol bo'lib xizmat qilgan. Yozma va xalq og'zaki ijodi o'zining tarbiyaviy ahamiyati bilan ham qadrlidir. Insonlarda azaldan eshitgan rivoyat, hikoyat va afsonalar ta'sirida mehr-muhabbat shakllanib, chuqur kurtak otgan. Sevgi va vafo tushunchalari muqaddas sanalib, do'stlik va birodarlik rishtalari mustahkamlangan. Oilada an'ana va qadriyatlar saqlanib, hurmat-odob kabi fazilatlar shakllangan.

Yozma va xalq og'zaki ijodiga xoslikni o'zida mujassam etgan asar yozgan shoirlardan biri Muhammadniyoz Nishotiydir. Shoir XVIII asrda Xorazm diyorida tug'ilgan. Nishotiy Xivadagi maktab va madrasalarda o'qib, bilim olgan. Ayniqsa, she'r san'atiga alohida qiziqish bilan qaragan.⁴ U muhit qiyinchiliklarga qaramay, lirik she'r, doston, masal-munozara janrlarida qalam tebratdi. Nishotiy asarlari orasida "Husn va Dil" dostoni o'zining qurilish xususiyatiga ko'ra ajralib turadi. Asar yozishda "xamsachilar" an'anasiga ergashgan. Nishotiy dostonining boshqa dostonlardan asosiy farqi unda voqeaband syujetning mavjudligidir. Asar 62 bobdan iborat. Nishotiy dostoni aruzning musaddas bahrida yozilgan. Shoir so'zlardan mahorat bilan foydalanib, bir so'zni turli ma'noda qo'llagan. Har bir bob nasriy sarlavhadan tashkil topgan. Voqealar she'riy shaklda bayon etiladi. "Husn va Dil" dostonida asarning yozilish sababi, vaqti va muallif hayotiga oid ma'lumotlar, Xorazm madhi keltiriladi. Qisqa muddatda katta hajmli (16 ming misraga yaqin) dostonni yozganini aytadi:

*Qildim ani nazm eturg'a qiyom,
O'tti mashaqqat ila besh oy tamom.*

O'zbek xalq ertaklari yaxshilikning yovuzlik ustidan g'alaba qozonishiga ishonchni kuchaytiradi. Tafakkuri shakllanib kelayotgan bola tasavvurini boyitadi, yaratuvchanlik qobiliyatini o'stiradi, idrokini kengaytiradi. Shu bois ham ota-bobolarimiz azal-azaldan

³ O'zbek adabiyoti tarixi. XVII-XIX (I yarmi) asrlar. R. Orzibekov. Toshkent-2006. 86-bet.

⁴ N. Jumaxo'ja, I. Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. Toshkent-2019. 351-bet.

farzand tarbiyasida bir-biridan qiziqarli syujetlarga boy ertaklarni aytib berishga alohida e'tibor qaratib kelgan.⁵

Xalq og'zaki va yozma ijodning har ikkisiga oid jihatlar "Husn va Dil" dostonida ko'zga tashlanadi. Dostonda Shayx Zaraq, Raqib, Foruqa, Vahmi balo kabi salbiy timsollar inson nafratini qo'zg'aydi. Himmat va Sabr timsollari ularga qarshi qo'yiladi hamda qiyinchilikni yengib o'tishda kuchli bo'lishga undaydi. Dostonda insonning ichki va tashqi olamidagi fazilatlar, sifatlardan foydalanilgan. Asarning farzandsizlik motivi bilan boshlanishi, fantastik-xayoliy sarguzashtlarga boyligi, ezgulik va yovuzlik o'rtasidagi kurash, Fuod o'z yoriga yetishish uchun turli qiyinchiliklarni boshdan kechirishi xalq og'zaki ijodidagi ertaklarda ham uchraydi. "Tohir va Zuhra" ertagi ham podshohning farzandsizligi bilan boshlanadi.

Dostonning to'y qismida munozara usulidan foydalanib, insondagi illatlar va qusurlar allegorik timsollar vositasida tasvir etilib, takabburlik, manmanlikka berilish qoralanib, sadoqat, jasurlik, to'g'rilik ulug'lanadi. Asar yakunida tinchlik g'alaba qozonib, Husn va Dil bir-birlariga yetishadilar. Doston ishqni kuylash barobarida majoziy timsollar vositasida insonlarni sabrli va adolatli, kibr-u havoga berilmay, kamtar bo'lishga undaydi.

Nishotiyning "Husn va Dil" dostonidagi voqealar xalq og'zaki ijodidagi ertaklarga yaqin bo'lgani uchun xalq tili va qalbiga oson kirib borishga imkon beradi. Folklor asarlarda fantastika, badiiy uydirmalar, hayotiy asos bo'lishi, xayoliy voqea va hodisalar hayotni tasvirlashning o'ziga xos uslubi sifatida namoyon bo'lgani kabi⁶ doston ham xalqning orzu-istaklarini, umidlarini ko'rsatishga xizmat qilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbek adabiyoti tarixi. XVII-XIX (I yarmi) asrlar. R. Orzibekov. Toshkent-2006.
2. Xalq og'zaki ijodi fanidan ma'ruzalar matni. Samarqand-2015.
3. S. Karimova. O'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot munosabatlari mavzusidagi ilmiy maqola. 2022.
4. Xolid Rasulning Nishotiy "Husn va Dil" dostoni. Toshkent -1967.
5. N. Jumaxo'ja, I. Adizova. O'zbek adabiyoti tarixi. XVI-XIX asr I yarmi. Toshkent-2019.
6. M. Qosimova. Muhammadniyoz Nishotiy hayoti va ijodi. Toshkent-1987.
7. O'zbek xalq ertaklari. Oyjamol. Ziyoz.uz.com kutubxonasi.
8. Fayzullayeva, O. X. (2020). Diversity in writing Uzbek sonnets. *Theoretical & Applied Science*,(4), 627-633.
9. Fayzullayeva, O. (2023). LYRIC IMAGE OF" I" IN CYCLES. *Евразийский журнал технологий и инноваций*, 1(6 Part 3), 118-125.
10. Kholbekovna, F. O. (2022). The artistic-aesthetic nature of rauf parfi's poetry. *Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities*, 12(5), 332-340.
11. Faizullayeva, O. H. (2022). Artistic Conditionality and Poetic Function of Signs in Lyrical Series. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 20-29
12. Epic, M. M. S. S. (2020). Bakhrom and Gulandom" and the Folk Tales. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 5(81), 34-38.
13. Rakhmonkulovich, M. M. (2022). Folklore Traditions In The Epos Of Sayyadi "Tohir And Zuhro". *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 14, 4-10.
14. Mamatqulov, M. (2021). SAYYADI-GHAZAL WRITER. *Bulletin of Gulistan State University*, 2021(1), 46-50.

⁵ S. Karimova. O'zbek xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot munosabatlari mavzusidagi ilmiy maqola. 2022.

⁶ Xalq og'zaki ijodi fanidan ma'ruzalar matni. Samarqand-2015. 4-bet.